



AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING GIDROMETEOROLOGIYA VA
EKOLOGIYA SOHALARIDAGI O'RNI

Ilhamdjanova Dildora

Toshkent gidrometeorologiya texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada Axborot texnologiyalarining gidrometeorologiya va ekologiya sohalaridagi o'rni, Gidrometeorologiya xizmati rivojlanish bosqichlari, meteorologik, agrometeorologik, gidrologik yo'nalishlari va iqlim o'zgarishi uchun ahamiyatli masalalari o'rganilgan hamda tegishli xulosalar qilingan.*

Kalit so'zlar: *gidrometeorologiya xizmati, meteorologik, agrometeorologik, gidrologik, avtomatik meteorologik stansiyalar, avtomatik kichik meteostansiyalar*

Jamiyatni rivojlantirishning hozirgi bosqichida hayotimizni gidrometeorologiya xizmatidagi tasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki, bu xizmat nafaqat iqtisodiyotimizning qishloq xo'jaligi, aviatsiya kabi ko'plab jabhalari faoliyati, balki davlatimiz xavfsizligi bilan ham bog'liq bo'lgan muhim vazifani bajarib bormoqda. Oxirgi yillarda mamlakatimiz gidrometeorologiya xizmati faoliyatida yangi imkoniyatlar ochildi, unga xalqaro rivojlanish darajasiga ko'tarilish imkonini berdi. Ayni paytda markaz meteorologik, agrometeorologik, gidrologik yo'nalishlar bo'yicha gidrometeorologiya xizmatlar ko'rsatib, iqlim o'zgarishlariga oid ma'lumotlar bilan ta'minlamoqda, xavfli hodisalarni monitoring qilmoqda. Gidrometeorologiya xizmati atmosfera, yuza suvlar, tuproq ifloslanishini va rangli monitoringni amalga oshirmoqda. So'nggi yillarda gidrometeorologiya tizimining texnik bazasini takomillashtirishga doir keng ko'lamli ishlar bajarildi. Xususan, Toshkent, Nukus va Samarqand shaharlarida xavfli gidrometeorologik holatlardan tezkor ogohlantirish uchun yangi meteolokatorlarni foydalanishga topshirish ishlari nihoyasiga yetmoqda. Bu chang bo'ronlari, bulutlar harakatlanishi va hajmini tezkorlik bilan aniqlash, yanada ishonchli hamda sifatli xizmat ko'rsatish, aviaparvozlar xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi. Axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgani natijasida gidrometeorologiya xizmati tezkorligi va sifatini yanada oshirish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. O'zbekiston Gidrometeorologiya xizmati BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli konvensiyasini O'zbekistonda amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirmoqda, Cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash konvensiyasini amalga oshirish, YUNESKO ning Global ekologik fondi, Xalqaro gidrologiya dasturi hamda boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar ishlarida va bitimlarni hayotga tatbiq etishda faol ishtirok etmoqda.

So'nggi yillarda gidrometeorologiya xizmatini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini gidrometeorologik ma'lumotlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi vaqtda milliy gidrometeorologiya xizmatida 330 dan ortiq gidrometeorologik kuzatuvlar va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringini olib boruvchi punktlarni



birlashtirib, ular yordamida 240 turdan ortiq prognostik, sun'iy yo'ldoshlardan olinadigan, tahliliy, ixtisoslashtirilgan va ma'lumotnoma tusidagi gidrometeorologik mahsulotlar tayyorlanishi yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan birga, suv va qishloq xo'jaligi, energetika, shaharsozlik, sanoat, transport va turizm kabi ob-havoga bog'liq iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashuvchi gidrometeorologik xizmatlar sifati va ma'lumotlarning o'z vaqtida taqdim etilishiga salbiy ta'sir etuvchi qator muammolar mavjudligi ushbu sohaga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Xususan, "O'zbekiston respublikasi gidrometeorologiya xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17-noyabr 2020-yildagi qarorida bir qancha vazifalar belgilab o'tilgan.

Hozirgi kunda Respublikamizda Meteorologiya stansiyalari soni 70-tadan 85 taga, qor ko'chki stansiyalari 3 tadan 6 taga, agrometeorologik postlar 40 taga ortdi.

Shuningdek, avtomatik meteorologik stansiyalar soni 10 tadan 77 taga, qor ko'chki stansiyalari 6 taga, meteorologik radiolokator tarmag'i 5 taga, 2022-yili MRL Buxoro ishga tushirildi, amalga oshirilgan ishlar natijasida hududlar bilan ma'lumotlar 10 daqiqada yangilanib borilishi taminlanib, turli barvaqtlikdagi ob-havo prognozlarining ishonchliligi, sutkalik 94 foizga, 2-3 sutkalik 92-foizga, 4-5 sutkalik 90 oizga, shtorm ogohlantirishlar oqlanish darajasi 95 foizga yetkazildi.

Respublikamizning qishloq xo'jaligi hududlarida 95 ta avtomatik kichik meteostansiyalar shga tushirilib, dala sharoitida klaster va fermer xo'jaliklarining ekin maydonlarida zarur bo'lgan xizmatlar (o'simlik namligi, yog'inlar miqdori, tuproq harorati va namligini) ko'rsatish turlari kengaytirildi.

Aholi yashash punktlarda havo sifatini monitoring qilish hamda gidrometeorologik ma'lumotlarni vizuallashtirish bo'yicha yangi "monitoring.meteo.uz" va "data.meteo.uz" geoportallari hamda ushbu saytlarning mobil ilovasi ishga tushirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston respublikasi gidrometeorologiya xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17-noyabr 2020-yildagi qarori .

2. Raximbayev Otabek Davlatbayevich, Orolbo'yi hududlarining antropogen omillar ta'siri ostida gidrogeologik sharoitlarning o'zgarishi, международный научный журнал № 2(100), часть 1 «научный фокус» июня, 2023

3. О.Д.Рахимбаев. Оролбўйи худудларида кузатилган антропоген ҳодисаларининг кўп йиллик ўзгаришини ўрганиш // «The Best Innovator in Science-2022» халқаро илмий танлов тўпламида. Тошкент-2022 й.

4. www.hydromet.uz sayti